

BYUDJET TASHKILOTLARIDA BYUDJET MABLAG`LARI AYLANMASINING MOHIYATI

Kurbanov Alisher Allanazarovich

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13905912>

Annotatsiya. Tezisda byudjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish, uni yuritishga doir ayrim asosiy tushunchalar ko`rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Balans, byudjet tashkilot, metod, buxgalteriya.

ESSENCE OF CIRCULATION OF BUDGET FUNDS IN BUDGET ORGANIZATIONS

Abstract. The thesis examines some basic concepts of the organization of accounting of budget organizations and its management.

Key words: Balance, budget organization, method, accounting.

СУЩНОСТЬ ОБРАЩЕНИЯ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. В диссертации рассматриваются некоторые основные понятия, связанные с организацией бухгалтерского учета бюджетных организаций и управлением им.

Ключевые слова: Баланс, бюджетная организация, метод, бухгалтерский учет.

KIRISH

Byudjet tashkiloti - bu zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog`liq; bo`lgan o`z faoliyatini amalga oshirishi uchun davlat byudjetidan mablag` ajratishni nazarda tutilgan va bu mablag`ni moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan davlat tashkilotidir. Byudjet tashkilotlariga davlat tashkilotlari, oliv o`quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, maktablar, maktab-internatlar, kollejlar, litseylar, shifoxonalar, poliklinikalar, bolalar bog`chalari, bolalar yasllilar va boshqalar kiradi.

ASOSIY QISM

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni to`la, aniq va o`z vaqtida moliyaviy va boshqa buxgalteriya ma'lumotlari bilan ta'minlash hisoblanadi. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifasi buxgalteriya hisobi schotlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlari va majburiyatlarining holati tugrisidagi tula va anik ma'lumotlarni shakllantirish; samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish hamda moliyaviy, soliq va boshqa hisobotlarni tuzish hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari bo`lib: buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozish usulida yuritish; uzluksizlik; xo`jalik operatsiyalarini, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi; ishonchlik; hisoblash; ehtiyyotkorlik (oldindan muvofiq bilish); mazmunning shakldan ustunligi; ko`rsatkichlarning qiyosiyligi; hisobotning betarafligi; hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi; aktivlar va majburiyatlarining xaqiqiy baholanishi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining ikki yoqlama yozish usuli bilan yuritish prinsipi byudjet tashkilotlarida xo`jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozish asosida ro`yxatga olib borish kerakligini bildiradi.

Ikki yoqlama yozish tizimi aynan bir operatsiyaning summasini bir vaqtning o`zida buxgalteriya hisobining ikki schotida - birining debetida va boshqasining kreditida aks ettirilishidan iborat bo`ladi.

Buxgalteriya hisobining uzluksizlik prinsipi byudjet tashkiloti doimiy faoliyat ko`rsatadigan va noma'lum uzoq muddatgacha o`z faoliyatini davom ettiradigan bo`lishini xamda buxgalteriya hisobini yuritish muddati byudjet tashkilotining faoliyat ko`rsatish muddatiga mos kelishi kerakligini bildiradi.

Buxgalteriya hiiisobining ishonchlilik prinsipi axborot, qachonki unda jiddiy yoki oldindan o`ylab kiritilgan xatolar bo`lmasa hamda foydalanuvchilar unga ishonsalar, ishonchli hisoblanishini bildiradi. Xo`jalik operatsiyalari yoki hodisalar ishonchli boshlang`ich hisob hujjatlari bilan tasdiqlangan bo`lishi kerak.

Hisoblash prinsipi aktivlar, passivlar, daromadlar, xarajatlar, xo`jalik operatsiyalari va hodisalar sodir etilgan paytda buxgalteriya hisobida aks ettirilishini bildiradi. Buxgalteriya yozuvlari hisobda hisoblash prinsipidan foydalanilgan holda xo`jalik operatsiyalari sodir bo`lgan vaqtda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotining raxbari: tashkilotda buxgalteriya hisobini tugri yuritilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga; xujjatlarni rasmiylashtirish, xujjatlarni va ma'lumotlarni hisobga olish uchun takdim etish masalalari bo`yicha bosh buxgalterning talablarini hisobga aloqasi bo`lgan tashkilotning barcha tarkibiy bo`linmalari va xodimlari tomonidan bajarilishini ta'minlashga mas'uldir.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining me'yoriy hujjatlarida belgilangan yagona uslubiyatni qo'llab yagona tizim bo`yicha tashkil qilinadi.

Byudjet va byudjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha xarajatlar smetalarining ijrosi buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozish tizimi bo`yicha olib boriladi. Byudjet tashkilotlarining katta-kichikligi, xarajatlar smetalarining hajmi, operatsiyalar soni va ma'lumotlarni ishslash vositalaridan foydalilishiga qarab hisobning turli shakllari (memorial order, jurnal-order, bosh-jurnal va boshqalar) qo`llaniladi.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklida yozuvlar va registrlar soni qisqaradi; analitik hisob sintetik hisob bilan yaqinlashtiriladi; ko`pgina hisobot ko`rsatkichlarini joriy hisob registrlaridan to`g`ridan-to`g`ri olish imkoniyati paydo bo`ladi, bu esa hisobot tuzishni osonlashtiradi va tezlashtiradi hamda hisobning analitik sifatini yuqori ko`taradi.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklining kamchiliklari ayrim jurnal-orderlarning tuzilishini murakkabligi va beso`naqayligi, buxgalteriya hisobida shaxsiy kompyuterlar qo`llanilgan hollarda jurnal-orderlarni qo`llashning qiyinligi hisoblanadi.

Byudjet tashkiloti xarajatlar smetalarini ijrosi bo`yicha balansining passividagi: byudjetdan moliyalashtirish; maxsus daromadlar; assosiy vositalardagi fond; kam baholi va tez eskiruvchi buyumlardagi fond; ish haqi bo`yicha xodimlar bilan tugallanmagan hisob-kitoblar; kreditorlar bilan hisob-kitoblar; byudjet tashkiloti tarkibiga kiruvchi nizomga ega bo`lmagan yordamchi xo`jaliklarning daromadlari va foydalari va boshqalar haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Yangi moliya yilining 15 yanvarigacha byudjet tashkilotining bankdagi talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag`iga yoki hududiy g`aznachilik hisobvarag`iga byudjet mablag`lari

hisobidan paydo bo`lgan byudjet tashkilotining debitor qarzlari kelib tushganda, ular byudjet mablag`lari bo`yicha kassa xarajatlarini kamaytirishga va byudjet tashkilotining rivojlantirish fondiga (agar o`tgan moliya yili bo`yicha kreditor qarzlar to`laligicha to`lab bo`lingan bo`lsa) yo`naltiriladi.

Byudjet tashkilotlari tomonidan o`tgan moliya yili uchun «Xarajatlar smetasi ijrosining balansi» (1-shakl), «Byudjet bo`yicha xarajatlar smetasining ijrosi tugrisidagi hisobot» (2-shakl), «Rivojlantirish fondi mablag`larining tushumi va xarajat kilinishi tugrisidagi hisobot» (2-rj-shakl) va «Tibbiyot muassasasini moddiy ragbatlantirish va rivojlantirish fondi bo`yicha daromad va xarajat turlari ijrosi tugrisida hisobot» (2-TMMRRJ - shakl) yangi moliya yilining 1 yanvar holatiga qo`shimcha davr ichida amalga oshirilgan operatsiyalarini hisobga olgan holda tuziladi.

REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 22 dekabrda ro`yxatdan o`tkazilgan 2169- sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan «Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to`g`risidagi Yo`riqnomasi». // http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=1714689.
2. Ostonaqulov M. Budget tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi. – T.: «Yangi asr avlod», 2011.
3. Mexmonov S.U. Davlat budjeti g`azna ijrosi sharoitida buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari. / «Davlat moliyasini isloh qilishning dolzarb muammolari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., 2019 yil 2 dekabr. –241–243-b.
4. Medvedev M.Yu. Buxgalteriya nazariyasi. Darslik. - M.: "Omega", 2017 yil.
5. Buxgalteriya hisobi. Darslik, 2-nashr, qayta ishlangan va kengaytirilgan. / Iqtisodiyot fanlari doktori, prof. Sokolova Y.V. - M.: "Prospekt", 2012 yil.